XALQ DEPUTATLARI GURLAN TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 7 - yanvar VI-71-1-12-171-K/23 Gurlan tuman hokimligi

Gurlan tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-813-son Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1018-son xati, Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2022-yil 5-yanvardagi VI-57-1-12-0-K/23-son “Xorazm viloyatining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda Xorazm viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-dekabrdagi 01-01-33-38/403–son xatini inobatga olib, xalq deputatlari Gurlan tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Gurlan tuman mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 99,9 mlrd.so‘m, xarajatlari 199,7 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 99,8 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun tumanning tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun tumanning budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1,9 mlrd.so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan mablag‘dan tashqari) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. 2023-yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy budjetni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2022 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat budjeti hamda tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat

budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Gurlan tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Davlatov), Gurlan tuman moliya bo‘limi mudiri v.b. (M.Ollamov), Gurlan tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Urazbaev) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetiprognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Gurlan tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Urazbaev) Davlat soliq inspeksiyalari bilan birgalikdaO‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk

soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirishvazifasi yuklatilsin.

14. Gurlan tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Urazbaev), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (Z.Allaberganov) 2023 yil uchun yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Gurlan tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Urazbaev), tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Gurlan tuman bo‘limi (X.Urazmetov) Gurlan tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Urazbaev), bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (R.Dosimov), jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Davlatov tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarinisamarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulkiob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlariniijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yichaijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar vavideo-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «ye-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasiyuklatilsin.

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Davlatov tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Atashev, tuman Davlat soliq inspeksiyasi A.Urazbaev bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq

hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suvresuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

Gurlan tuman moliya bo‘limi mudiri v.b. M.Ollamov:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring

ishlarini kuchaytirish, budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borish, o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

19. Xalq deputatlari Gurlan tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

20. Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash

maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Davlatov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilotlar:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan
chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

22. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

23. Mazkur qaror “Gurlan xayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Gurlan tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Sh.Xudayarov**

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-71-1-12-171-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-YIL UChUN GURLAN TUMANI BO‘YICHA
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING REJA KO‘RSATKIChLARI

Daromad turlari		**ming. so‘m**
1	Foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 087 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	25 361 000
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 331 000
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	11 326 000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 779 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 981 000
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	10 526 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 777 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 610 000
12	Davlat boji	
13	Jarimalar	
14	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	161 000
16	Yig‘imlar	
JAMI		**75 039 000**
	Mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromadlar	**24 854 894**
	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	10 055 078
	Mobil aloqa xizmati	4 313 044
	Tamaki mahsulotlari	10 486 772
JAMI DAROMAD		**99 893 894**
TRANSFERT		**99 817 513**

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-71-1-12-171-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun tumanning tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
Tuman byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar jami		**199 711 407,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	199 711 407,0
1	**Gurlan tuman Xalq ta’limi bo‘limi**	**9 355 139,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 355 139,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Gurlan tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**17 291 694,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 291 694,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Gurlan tuman Sog‘liqni saqlash birlashmasi**	**68 760 940,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	68 760 940,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Gurlan tuman Madaniyat bo‘limi**	**1 352 631,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 352 631,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
5	**Gurlan tuman sport bo‘limi**	**2 895 884,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	2 895 884,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
6	**Gurlan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**13 220 526,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 220 526,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Gurlan tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**1 127 984,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 127 984,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8	**Gurlan tuman Irrigatsiya bo‘limi**	**2 507 723,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 507 723,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Gurlan tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 814 306,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 814 306,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10	**Gurlan tuman Axoli bandligiga ko‘maklashish markazi**	**908 532,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	908 532,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11	**Gurlan tuman hokimligi**	**67 188 407,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	67 188 407,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**18 400,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 400,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13	**Gurlan tuman moliya bo‘limi**	**1 357 225,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 357 225,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	Fuqarolarga yetkazilgan zararni koplash	
	Advakatlik xizmati xarajati	
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish	
	Prezident ta’lim muassasalari qurish uchun jalb etilgan qarz mablag‘larini qaytarish xarajatlari	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Xorazm viloyati shahar va tumanlari mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	
14	**Gurlan tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi**	**2 798 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 798 000,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
15	**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Xorazm viloyatidagi muassasalar**	**586 677,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	586 677,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16	**Xalq deputatlari viloyat Kengashi**	**199 041,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	199 041,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17	**Ijtimoiy ko‘nikma markazlari**	**71 329,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	71 329,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18	**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Xorazm viloyati boshkarmasi**	**4 068 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 068 000,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19	**Gurlan tuman Mahalla va oilani qullab-quvvatlash boshqarmasi**	**4 188 969,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 188 969,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Xalq deputatlari Gurlan tuman Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-71-1-12-171-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Gurlan tumani mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno*	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Gurlan tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-71-1-12-171-K/23-son qaroriga
4-ilova

Gurlan tumani mahalliy byudjetlarning 2023-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Gurlan tumani	99 893 894,0	199 711 407,0

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-71-1-12-171-K/23-son qaroriga
5-ilova

Gurlan tumani mahalliy byudjetlarining 2023-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
1	Gurlan tumani	99 817 513,0

Xalq deputatlari Gurlan tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-71-1-12-171-K/23-son qaroriga
6-ilova

Gurlan tumani mahalliy byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Miqdor
1	Gurlan tumani	803 000,0